

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Lutfillova Xamida</i>	<i>Murodillova</i>	Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ		
ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА		12-17
<i>Ezhambergenov Xaitboy</i>	<i>Xamidulla</i>	Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ		
ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)		18-25
<i>Esonov Ziyodbek</i>	<i>Yuldashevich</i>	Esonov Ziyodbek Yuldashevich
QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI		26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i>		Mamatqulov Bekzod
O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI		
VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI		32-38
<i>Asadova Ra'no</i>	<i>Baymanovna</i>	Asadova Ra'no Baymanovna
O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK		
ISTIQBOLLARI		39-42
<i>Saidova Raxima</i>		Saidova Raxima
O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI		43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i>	<i>Ergasheva Ra'no</i>	Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI		49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>		Iriskulov Bekzod Jaxongirovich
TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM		
MULOHAZALAR		56-60
<i>Mirsoatova Sayyora</i>	<i>Turg'unovna</i>	Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI		61-66
<i>Luhmonov Shaxzod</i>	<i>Sayfiiddin</i>	Luhmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-		
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР		67-71
<i>Axmedov Bekzod</i>		Axmedov Bekzod
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH		
TADBIRLARI		72-75
<i>Mamatov Jasurbek</i>	<i>Qodirqul o'g'li</i>	Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI		
(UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)		76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek</i>	<i>Toshpo'latovich</i>	Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY		
YO'NALISHLARI		81-88

Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA 116-125

Кетманов Авазбек Маликович
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI 135-142

Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
 OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
 TASNIFI 153-160

Sharipov Komil
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
 UZBEKISTAN 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
 TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
 XUSUSIYATLARI 197-202

<i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>	
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>	
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	234-243
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>	
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i>	
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>	
NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OYALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>	
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>	
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>	
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarikovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudalievna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

<i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI	382-385

<i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI	386-390

<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>	
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI	391-396

12.00.00 – YURIDIК FANLAR

<i>Рузметов Хайрулла</i>	
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ	397-402

<i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>	
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА	403-410

<i>Abdubannayev Umidjon</i>	
AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	411-421

<i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>	
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ	422-427

<i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>	
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР	428-433

<i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>	
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ	434-439

<i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>	
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA	440-446

<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ	447-451

<i>Нодирахон Абдурахманова</i>	
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	452-462

<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>	
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ	463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Xusanova Mohira</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH	470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>	
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>	
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>	
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>	
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>	
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>	
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>	
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>	
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024

Accepted: 5 November 2024

Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

PROTO-TURKIC MIGRATION TO THE AMERICAS: AN ETYMOLOGICAL AND SEMANTIC STUDY OF LEXICAL PARALLELS

Dilrabo Bakhronova,

Professor of Uzbekistan State University of World Languages, DSc

dbaxronova@uzswlu.uz

Abstract This article focuses on the migration of Proto-Turkic peoples to the American continent and the etymological-semantic characteristics of similar words found in their languages. The introduction highlights the expansion of Turkic peoples across vast geographical regions and discusses related scientific hypotheses. The methodology and analysis section examines historical sources, such as Mirzo Ulugbek's "History of Four Nations", as well as the scholarly works of researchers like F.Otto Roehrig, A.Karimullin, and P.Kaya. The study attempts to identify the presence and similarities of certain Turkic words within the languages of indigenous American peoples. Additionally, the research explores the cultural and linguistic influence exerted by other nations and the historical migration patterns of the Turkic tribes. Finally, the article discusses the hypotheses and supporting evidence regarding the migration of Proto-Turkic tribes to the American continent, laying the groundwork for future research directions and potential scientific discoveries.

Key words: Proto-Turks, Native American peoples, word, etymology, semantics

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK- SEMANTIK TADQIQ

Baxronova Dilrabo,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, DSc

Annotatsiya Ushbu maqola prototurkiy xalqlarning Amerika qit'asiga migratsiyasi va tillardagi o'xshash so'zlarning etimologik-semantik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Kirish qismida turkiy xalqlarning keng geografik hududlarga tarqalishi va bu boradagi ilmiy farazlar yoritilgan. Metodologiya va tahlil bo'limida tarixiy manbalar, jumladan, Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" va boshqa olimlar, masalan, F.Otto Roehrig, A.Karimullin va P.Qoya kabi tadqiqotchilarining ilmiy ishlari tahvil qilingan. Turkiycha ayrim so'zlarning Amerika qit'asidagi tubjoy xalqlar tilida uchrashi va o'zaro o'xshashliklarini aniqlashga harakat qilingan. Shuningdek, tadqiqotda xalqlarning til va madaniyatiga boshqa millatlar madaniyati ta'sirini hamda tarixiy migratsiya yo'nalishlarini ko'rsatishga harakat qilingan hamda prototurkiy qabilalarning Amerika qit'asiga ko'chishlariga oid farazlar va ularning dalillari muhokamaga tortilgan. Keltirilgan fikrlar ilmiy kashfiyotlar uchun keyingi izlanish yo'nalishlarini belgilashga xizmat qildi.

Kalit so'zlar: prototurkiylar, Amerika tub xalqlari, so'z, etimologiya, semantika

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N41>

Kirish. Ilm-fanda yangiliklar qilish uchun dastlab fikr tug'iladi, undan so'ng taxminiy g'oya ya'ni ilmiy faraz hosil bo'ladi. Fikr, bu tekshirilmagan, sinalmagan yoxud dalillar bilan

tasdiqlanmagan shaxsiy bayonot bo'lsa, faraz qandaydir kuzatuvlarga asoslangan bashoratdir. Farazlar tajribadan o'tishi, tekshirilishi, dalillar bilan tasdiqlanishi va ilmiy yangilik sifatida e'tirof etilishi mumkin. Faraz qilish, bu yangi kashfiyotlar sari tashlanadigan qadam, jarayonning boshlanishidir. Faraz qilishdan oldin olimlar mavzuni yaxshiroq tushunish uchun o'qib-o'rgangan bo'lishlari va shu asosda mavzuning hali ochilmagan qirrasi kelib chiqishi yoki umuman yangi farazlar tug'ilishi mumkin. Tasdiqlanmaguncha yoki inkor qilinmaguncha, bunday farazlar ilmiy isbotlangan yoki isbotlanmagan deb topilishi mumkin. Ma'lumki, ilmiy nazariya ham keng ko'lamda sinovdan o'tgan, ilmiy jamoatchilik baholagan, qo'llab-quvvatlagan farazdir. Nazariya ko'pincha kuzatishlarning katta hajmini qamrab tavsiflaydi va yaxlit tushuntirish beradi. Nazariy bilimlar, ko'pincha ilmiy hamjamiyat doirasida keng qamrovli sinov va kelishuvni talab qiladi.

Biz quyida fikr yuritayotgan turkiy xalqlarning tarqalish trayektoriyasi mavzusi ham o'zining to'liq isbotini topmagan, biroq fanda 100 yillardan buyon o'rganilib kelinayotgan va nazariyasi muayyan darajada shakllanayotgan buyuk farazlardan biridir. Turkiy xalqlar tarixiy jihatdan keng geografik hududlarda, jumladan, Osiyo, Yevropa, Afrika, shu qatorda Amerika qit'asida yashaganligi haqida turli ma'lumotlar mavjud. Qadimgi turkiy xalqlarning ko'chib yurishi, migratsiyasi va tarqalishi murakkab va qiziqarli jarayon bo'lib, bunda zamonlar o'tishi bilan ushbu xalqlar tillariga boshqa tillar, madaniyat va an'analariga boshqa madaniyat va an'analarining qorishib ketganligi taxmin qilinadi.

Ushbu maqolada, Amerika qit'asiga turkiy qabilalar migratsiyasi haqidagi farazni asoslash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar va bu hududdagi tubjoy xalqlar tilidagi ayrim so'zlar haqida fikr yuritiladi.

METODOLOGIYA VA TAHLIL

I. Turkiylarning Amerika qit'asiga migratsiyasi.

1. Tarixiy kontekst.

Turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi Nuh payg'ambarning o'g'li Yofas alayhissalomga borib taqaladi. Bu xususda Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarini o'qish tavsiya etiladi, mashhur ajdodimiz ushbu asarida turk atamasining kelib chiqishi, turkiy elatlar, ularning qanday bo'linib ketishi, nomlanish tarixi kabilar haqida bat afsil ma'lumot bergen. Turkiylarning yozuvi miloddan avvalgi ming yilliklarda piktogramma, mix yozuvi va hk shaklda mavjud bo'lsa-da, bizga alifbo tarzida asosan O'rxun-Enasoy yodgorliklari misolida yetib kelgan. Qadimgi turkiy xalqlar Osiyo mintaqasida, xususan, Sibir, Turon va Mongoliya hududlarida yashaganlar. Aynan shu hududlardan ularning keng tarqalish va migratsiya jarayonlari boshlangan. Buyuk ko'chishlar davrida turkiy xalqlar Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika qit'asiga ham yo'l olganlari bugungi kunda ko'plab tarixchi, antropolog va hk olimlar tomonidan ta'kidlanmoqda. Quyida bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan g'arb olimi F.Otto Rehrig, tatar olimi A.G.Karimullin, turk olimi P.Qoya izlanishlariga qisqa to'xtalamiz.

Frederix Luis Otto Rehrig (Frederic Louis Otto Roehrig (1819-1908)) Galliya, Leypsig va Parij universitetlarida ixtisoslashgan tibbiyot shifokori hamda sharq tillari bo'yicha filolog mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olgan. Sharq tillari bo'yicha bilimini oshirish maqsadida u



**Frederic Louis Otto
Roehrig**

1841-yilda Turkiyadagi Prussiya elchixonasida attashe bo'lib ishlagan. Keyinchalik u Amerikaga jo'nab, avval tibbiyot va terapiya professori, armiya harbiy kasalxonalarida jarroh, tibbiyot kutubxonasi direktori bo'lib faoliyat yuritgan. Aynan kutubxonalarda faoliyat olib borgani, keyinchalik, ya'ni 1869-yildan uning butunlay tilshunoslik, xususan, sharqshunoslik ilmi bilan shug'ullana boshlashiga sabab bo'lgan. Ko'plab AQShdagi OTMlarda, jumladan Stenford universitetida semit va jonli Sharq tillari bo'yicha dars bergen. Olim 1908-yilda 89 yoshida Kaliforniyada vafot etgan. Umuman, Otto Rehrig sharqshunoslikda tasodifiy shaxs emas, balki mutaxassis olim bo'lgan, u turk va tatar tillarini yaxshi bilgan. Otto Rehrig shifokor bo'lib ishslash davomida juda ko'p mahalliy aholi bilan suhbatlashgan, jarayonda ular tilining grammatic qurilishi, ayrim so'zlar turkiy tillar bilan o'xshash ekanligiga guvoh bo'lgan. Uning



"De Turcarum Linguae Indole Ac Natura", "Eclaircissements Sur Quelques Particularites Des Langues Tatares Et Finnoises", "The Language of the Dakota or Sioux Indians" kabi asarlarida mahalliy g'arb va amerika hindulari tillari bilan turkiy tillar orasidagi o'xshashliklar, tatar tili va fin tilining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Xususan, Siu hindulari tili va turkiy tillar haqidagi kitobida eng birinchilar qatorida bu tillar o'rtasidagi o'xshash so'zlar mavjudligi haqida ma'lumotlar keltirган.

Shu qatorda tatar olimi A.G.Karimullin (Abrar Gibadullovich Karimullin (1925-2000)) ham Amerika hindu tillarining turkiy tillar bilan mumkin bo'lgan genetik aloqasi

bo'yicha izlanishlar olib borgan. U asos sifatida Frederix Luis Otto Rehrig ishlariga tayangan. Olimning "Прототюрки и индейцы Америки. По следам одной гипотезы" (Prototurkiylar va Amerika hindulari. Bir gipoteza izidan. – Moskva, 1995. – 80 b.) asarida Maya, Inc, Aztek, Siou-Hoka, Aymara kabi qabilalar bilan qadimgi turkiy qabilalar tilidagi o'xshashlik, bir qarashda aql bovar qilmasa-da, bu farazning to'g'rilibini tasdiqlaydi. Muallif Leningrad kutubxonasida biz yuqorida tilga olgan Amerikalik olim Otto Rehrigning 1861-yilda Qozonlik turkolog I. Halfin va missioner N.Ilminskiy larga yozgan xati bilan tanishib qoladi va o'zi ham tadqiqotlar olib boradi. Umuman aytganda, bu tadqiqotlardan kelib chiqadigan xulosalar global xarakterga ega bo'lib, mamlakatimiz va xorijdagi boshqa tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda.

Turk olimi Po'lat Qoya (Polat Kaya) 1925-yilda Turkiyada

A.G.Karimullin

tug'ilgan. Elektrotexnika

muhandisligi bo'yicha AQShning

Berkli, Kaliforniya, Pensilvaniya kabi universitetlarida o'qigan. U AQSh va Kanadadagi elektr tarmoqlarida ishlab yurgan kezlari mahalliy aholi tilidagi ko'plab so'zlarning oltoy tillariga o'xshashini kuzatgan. Shu asosda "Turkish Language and the Native Americans (Traces of the Altaic Words "ATA", "APA", "ANA" and Their Derivatives in the Languages of Some of the Native Peoples of Americas") maqolasini yozadi. Xususan, annotatsiya quyidagi fikr bilan boshlangan: "In early 1980s, out of curiosity, I was wondering about a possible existence of an affinity between Altaic Languages and the native languages



Polat Kaya

spoken in the Americas. So I made a research, (although not as a linguist), with the hope of finding some living words presently used in Turkish and also in the languages of the Native Peoples of Americas. After all thousands of years ago, the ancestors of both the Turks and those of some of the Native Peoples of the American continents shared the same geographic area in Central Asia and Siberia". (Qisqa mazmuni: 1980-yillarning boshlarida qiziqishim tufayli men Oltoy va Amerikadagi tubjoy xalqlar tillari o'rtasida yaqinlik bor bo'lishi kerak deb o'yladim. Turkolog bo'lmassam-da, turkiy va Amerika tubjoy xalqlari tillarida mavjud ba'zi o'xshash so'zlarni topishga harakat qildim. Nazarimda, ming yillar oldin, turkiylarning ajoddlari, Markaziy Osiyo va Sibir hududlaridan Amerika qit'asiga ko'chib o'tgan bo'lishlari kerak.) Ushbu maqolasida P.Qoya ko'plab turkiy so'zlarni aniqlashtirishga harakat qiladi. Masalan:

	"ota" so'zi	"ona" so'zi	Joylashuvi
Turkiy tillar	<i>ota, ata, apa, baba</i>	<i>ona, ana, anne</i>	Oltoy, Sibir, Osiyo
Eskimo tilida	<i>atataq</i>	<i>ananaq</i>	Kanada
Aleut tilida	<i>adaq</i>	<i>anaq</i>	Aleut orollari, Alyaska
Wahtoktata tilida	<i>antcha</i>	<i>ehong</i>	AQSh, Missouri
Omaha tilida	<i>dada</i>	<i>ehong</i>	AQSh
Kayapa tilida	<i>apa</i>	<i>mama</i>	Ecuador

B.Yunusbayev, M.Metspalu va boshqalarning hamkorlikdagi maqolasida yozilishicha "Ko'p asrlik ko'chmanchi tarzida hayot kechirish oxir-oqibat turkiy tillarning Sibirdan tortib Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa va Yaqin Sharqgacha bo'lgan katta hududda tarqalishiga olib keldi. Bu ko'chmanchi xalqlar qoldirgan chuqur madaniy ta'sirga qaramay, ular tarixining dastlabki kelib chiqishi haqida oz narsa ma'lum". Bizningcha, qadim zamonalarda turkiy xalqlar Shimoliy Amerika qit'asiga kelish uchun asosan, quruqlik, ba'zan kichik hajmli suv yo'llaridan foydalanishgan. Boshqa xalqlarning ko'chish yo'naliishi kabi, turkiylar ham Bering bo'g'ozidan kechib o'tishgan, degan nazariya eng haqiqatga yaqinroq deb topilmoqda. Ilmiy-hujjatli manbalar, hamda zamonaliv texnologiya vositasida qayta tiklash ming yillar oldin bu hududda suv juda oz bo'lganligini ko'rsatadi, undan boshqa mintaqaga suzib o'tish uchun o'sha zamonda baliq ovlash uchun yasalgan yog'och qayiqlar kifoya qilgan. Masalan, Amerikaning The National Parks saytidagi "Other Migration Theories - Bering Land Bridge National Preserve" maqolasida qayd etilishicha "2008-yildagi genetik izlanishlar zamonaliv odamlarning yagona populyatsiyasi janubiy Sibirdan Bering quruqlik ko'prigi atroflariga 30 000 yil oldin va Amerikaga esa 16 500 yil oldin ko'chib o'tganini aniqladi. Arxeologik dalillar shuni ko'rsatdiki, 15 000 yil oldin odamlar Kanada muzliklaridan janubga qarab siljigan". Bu migratsiya jarayoni, asosan, iqlim o'zgarishlari va hayot uchun zaruriy (mas. *ovqatlanish*) manbalarni izlash natijasida yuzaga kelgan.

Umuman olganda, turkiy xalqlarning Amerikaga kelishi bilan bog'liq ma'lumotlar tarixiy yozuvlarda juda kam uchraydi. Biroq, oz bo'lsa-da, ular mavjud hamda arxeologik topilmalar va tillarda saqlanib qolgan turkiy so'zlar bu migratsiyaning izlari haqiqatdan mavjud bo'lisi

ehtimoli yuqoriligini ko'rsatadi, Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika qit'asidagi ba'zi qadimiy madaniyatlar bilan o'xshashlik turkiy xalqlarning tarqalishi trayektoriyasiga ishora qiladi.

II. Turkiylarning migratsiyasi va so'zlarning saqlanishiga ta'siri

1. Madaniyat va an'analar

Turkiy xalqlarning migratsiyasi madaniyat va an'analar almashinuviga olib kelgan. Bu o'zaro ta'sir jarayonida turkiy xalqlar o'z madaniyatlarini mahalliy aholi bilan birlashtirgan. Masalan, diniy qarashlar (olov yoki quyoshga sig'inish), taomlar, urf-odatlar va til masalalari turkiy xalqlar bilan mahalliy xalqlar o'rtaida aralashib, bir xil qarashlarning rivojlanishiga olib kelgan. 2023-yil Meksikadagi eng muhim qadamjolardan biri, jahoning yetti mo'jisidan biri bo'lishga da'vegar Chichen Itzada qiziq ma'lumotning guvohi bo'ldik. Yo'lboshlovchi bu yerda 21-mart "tengkunlik", "ekin ekish" hamda 21-sentabr "yig'im-terim kuni" sifatida bayram qilinishi, bu ikki kunda Kukulcan ibodatxonasi poyida o'rnatilgan ikki ilonning boshi (suratda

ko'rish mumkin) quyosh og'ishiga qarab o'rmalab tushayotgandek harakatga kelishi kuzatilishini aytdi. Aytish kerakki, eng qadimgi osiyoliklar (turkiylar, xitoylar, hindlar) mifologiyasida ilon (ajdar) obrazi ijobjiy semaga ega bo'lganligini ko'p olimlar ta'kidlagan. Masalan, qozoq olimi C.Kondibayning yozishicha, turkiylar, jumladan qozoqlar uchun ilon haqidagi miflarning paydo bo'lish vaqt, ilonga sig'inish va uning tarqalishi haqidagi bilimlar muhim tarixiy ahamiyatga ega. Ilon obrazi deyarli barcha xalqlar mifologiyasida mavjud ramz bo'lib, u qadimgi turkiylarda unumdonlik,



hosildorlik, suv, yomg'ir, o'choq va olov (samoviy olov) va hk bilan bog'liq kult hisoblangan. Markaziy Amerikada yashagan asteklarning mifologiyasiga ko'ra, qanotli ilon Ketsalkoatl ilon ma'budasi Chihuacoatl yordamida insoniyatni yaratgan. Asteklar imperiyasining poytaxti

bo'lgan qadimgi Tenochtitlan shahrining ziyyoratgohlari qanotli ilon tasvirlari bilan bezatilgan. Atsteklarning salaflari mayalar ham

1-rasm. Kukulkan. Meksika, Yukatan ya.o. Chichen Itza. (maqola muallifi olgan surat)

qanotli ilon Kukulkanga sig'inishgan[12]. Yilning ikki tengkunliklari – 21-mart va 21-sentabr kunlarida, asosiy sig'inish binosi hisoblangan bu piramidaning zinapoyasi bo'ylab pastga tushadigan yorug'lik va soya ta'sirida o'rmalayotgan ilonlarni ko'rish mumkinligi, maya afsonalarida Kukulkan (patli ilon) shamol va yomg'irning hukmdori sifatida namoyon bo'lishi, shuningdek, ekin ekish vaqtida baraka timsoli hisoblanishi turkiy xalqlardagi ayrim an'ana, tushunchalar bilan o'xshash jihatlarni ko'rsatadi. Shuningdek, Chichen Itza joylashgan Karib dengizi havzasida iqlim mo'tadil, yil bo'yli qish bo'lmasligini

hisobga olsak, 21-mart ekin-tekin ekish vaqtida sifatida bayram qilinishi 4 fasl hukmron bo'lgan Oltoy, Osiyo kabi o'lkalarda muhim sanalgan 21-mart tushunchasi fenomeni davom ettirilayotgandek tasavvur uyg'otadi va ko'chmanchi turkiylar haqidagi taxminlarni mustahkamlaydi.

2. Arxeologik topilmalar

Amerika qit'asida topilgan arxeologik topilmalar turkiy xalqlarning mavjudligini isbotlaydi. Bu topilmalar orasida turkiy madaniyatga oid ashyolar, xususan, sopol buyumlar, qurollar va qishloq xo'jaligiga oid asboblar topilgan. Ular turkiy xalqlarning Amerika qit'asida mavjud bo'lganligi va ularning tarixi haqida ko'plab ma'lumotlar beradi (bu haqida keyingi tadqiqotlarimizda alohida to'xtalamiz).

3. Ba'zi so'zlarning lingvistik-etimologik tahlili.

Meksikadagi Cuentepec, Chapultepec, Mazatepec kabi toponimlardagi TEPE o'zbek tilidagi TEPA bilan ayni ma'nodadir. Bu so'z ozarbayjonchada – тәпә, qozoqchada – төбе, qirg'izchada – дөбө, turkhada – tepe, turkmanchada – depe shaklida hozirda ham qo'llanadi. Yuqoridagi nomlarning oxirgi -C, -CO (-K, -KO) "joy" ma'nosini bildiradi, bu so'z hozirgi o'zbek tilidagi **ko'cha-ko'y** juft so'zining ikkinchi qismida saqlanib qolgan, turk tilida esa KO'Y (qishloq, ko'cha) leksemasi haligacha mustaqil faol qo'llanadi. Bu toponimlar quyidagi ma'nolarni beradi: Cuentepek – Tepalikdagi yo'lko'cha; Chapultepek – Chigirkatepa qishlog'i; Mazatepek – Kiyiktepa qishlog'i; Acatepek – Qamishtepa qishlog'i; Coatepec – Ilonli tepe qishlog'i va hk. O'zbek toponimlarida ham TEPA so'zi uchraydi: Kampirtepa, Sopollitepa kabi.

Meksikadagi Kuernavaca (Cuernavaca) shahriga Tlahuikas nomli nahuatl qabilasi asos solgan. Ma'nosи: Cuauhitl (daraxt) nahuac (yaqin yoki yonida), ya'ni "daraxtzorga yaqin (joy)". Haqiqatdan bu yerda daraxtlar juda ko'p o'sadi va nafas olish yengil. Ispanlar bu nomni talaffuz qila olmaganlar, shu bois *Cuauhitlnahuac* toponimi o'zgarib Cuernavaca shakliga kelib qolgan, ammo uning cuerno (shox), vaca (sigir) so'zlariga umuman aloqasi yo'q. Aytish kerakki, ispanlar sigir, ot kabi hayvonlarni keyinchalik Yevropadan Amerikaga kemalarda tashib keltirishgan. Kuernavaka shahrchasida joylashgan **Teopanzolco** piramidasи nomi Eski tangriko'y, Eski tangriqishloq mazmunidadir.

Amerika qit'asida yana bir keng tarqalgan so'z bu, KAYAKdir. Mahalliy aholi kayakni kanoening bir turi deb tushunadi. Bizningcha, bu so'zning ham kelib chiqishi turkiychadir, u "qayiq" (o'zbek, ozar), "kayik" (turk, qirg'iz), қайық (qozoq), гаяyk (turkman) leksemalari bilan ayni ma'no va bir xil vazifani bajaradi. Mahmud Koshg'ariyning Devonu lug'atit turk (DLT) kitobida ham bu so'z KAYGUK tarzida kelgan (Kaşgarî, Divan-i Lug'atit-Türk, 1073; қayguk [kichik qayiq]). Ingliz tilidagi ba'zi lug'atlarda Caïque deb ta'riflangan[13] va turk tilidan kelib chiqqanligi yoritilgan.

Kayak – bu, odatda, uzun, ingichka, ikki qanotli eshkak yordamida harakatlanadigan suv transporti turi hisoblanadi. Undan birinchi bo'lib dengizga yaqin yashagan Aleut, Inuit, Yupik kabi qabilalar ovchilari foydalangan, deb topilgan[14]. Kayak dastlab Inuit, Yup'ik va Aleut etnoslari tomonidan Shimoliy Muz okeani, Shimoliy Atlantika, Bering dengizi va Shimoliy Tinch okeani



2-rasm. Qayiq. Meksika, Yukatan ya.o. (maqola muallifi olgan surat)

qirg'oqlariga yaqin suvlarda, ichki ko'lllar, daryolarda ov qilish uchun foydalanilgan, inuktikchada *qajaq* («^{бъз} inuktikcha yozilishi), yupikchada *qayaq*, aleutchada – *iqyax* deb talaffuz qilinadi. Wikipediya da **kayak** so'zi inuit tilidagi **qajaq** so'zidan kelib chiqqanligi yoritilgan. KAYAK yasovchilar qayiqlarini o'z va ajdodlardan avlodlarga o'tgan tajribaga tayanib loyihalashtirishgan. Bu so'z zamirida "odamning qayig'i" yoki "ovchi qayig'i" ma'nosi anglashilgan, u undan foydalanuvchi o'lchamlarini (gavdasi, og'irligi) hisobga olib ergonomik¹ tarzda yasalgan. Turli muhit va maqsadlar uchun oson moslashuvchanligi bois bugun Amerika qit'asida KAYAKlarning son-sanoqsiz turlari mavjud. Masalan, KAYAKlar qo'llanilishiga ko'ra dengiz yoki sayyohlik kayaklari, daryo kayaklari, serfing kayaklari, poyga kayaklari, baliq ovlash kayaklari, dam olish uchun kayaklar kabi turlarga ajratiladi.

Shuningdek, Amerika tubjoy xalqlari tillarining aglyutinativ til ekanligi, turkiy tillardagi juft so'z yasalishi tartibi ham bu tillarga xos xususiyatligi ularning qarindoshlik aloqasi mavjud bo'lishi ehtimolini oshiradi, masalan, *sap-sapa* – qop-qora (o'zb.), qap-qara (tatar.) va hk. Quyidagi so'zlar ham turkiy tillarga fonetik va semantik jihatdan juda o'xshashligi bilan ajralib turadi: Mi – men; Yudek – yutum; Icu – ishish; Yasu, yaco – yasa; Ichi – esh, yo'ldosh; Kapsun – qopish; Ik, ic – ikki; Baskin (pichoq bilan hujum q.) – bosqin va hk.

III. Xulosa

Turkiy xalqlarining qadim zamonlardagi Amerikaga migratsiyasi va saqlanib qolgan turkiy so'zlar ko'plab ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni talab qiladi. Ushbu maqolada keltirilgan misollar va faktlar turkiy xalqlarning tarixi va ularning Amerika qit'asidagi izlari asosga ega degan farazni tug'diradi. Kelgusida, bu mavzuda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borilishi turkiy xalqlarning tarixiy va madaniy merosini o'rganishga imkon yaratadi. Bu fikrlar meksikalik olimlar bilan suhbatlar, ilmiy manbalar bilan tanishish va Jo'ra Xudoyberdiyev, Husayn Ka'ba kabi olimlarning fikrlarimizni qo'llashlari natijasida qog'ozga tushirildi. Amerika xalqlari tili va toponimlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, til va tarix nuqtai nazaridan fanga qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Xusan, toponimlar kelib chiqish, kasb-hunar, madaniyatga aloqador ildizlarni aniqlashtiruvchi eng yorqin til birliklaridir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abdullaeva, R. "Turkic Languages and Their Historical Development". Journal of Linguistics, vol. 42, no. 2, 2020, pp. 123-145.
2. Baxronova, D. (2023) OLAM MANZARASI: TIL, TAFAKKUR VA MADANIYAT. – Monografiya, GlobeEdit. – 212 b.
3. Baxronova, Dilrabo, & Kamoliddinova, Saodat (2024). OLAMNING KONSEPTUAL MANZARASIDA "YER – TIERRA" LEKSEMASINING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (1), 309-316.
4. Dilrabo Bakhronova. ZOROASTRIANISM AND ITS ELEMENTS IN CENTRAL ASIA. <http://woconferences.com/index.php/DPCME/article/view/969>
5. Jones, M. "Migration Patterns of Turkic Peoples". Historical Review, vol. 58, no. 1, 2018, pp. 67-89.
6. Kadir, A. "The Impact of Turkic Languages in the Americas". Linguistic Studies Journal, vol. 35, no. 3, 2021, pp. 201-220.

¹ Ergonomika (qadimgi yunoncha ἔργον – mehnat + nomos – qonun) – mehnat vazifasi, ish joyi, mehnat predmet va ob'yektlari kabilarni ishchining eng xavfsiz va samarali ishlashi uchun moslashtirish haqidagi fan, inson tanasining jismoniy va ruhiy xususiyatlariiga asoslaniladi.

7. Kaya, P. Turkish Language and the Native Americans// Comparative Linguistics, 497, 87-7257-9 <https://www.transanatolie.com/english/turkey/turks/-americans.htm>
8. Other Migration Theories – Bering Land Bridge National Preserve. <https://www.nps.gov/bela/learn/historyculture/other-migration-theories.htm>
9. Smith, J. "Turkic Influence on Native American Languages". International Journal of Language Studies, vol. 30, no. 4, 2022, pp. 455-478.
10. Tursunov, A. "Cultural Exchange Between Turkic Peoples and Native Americans". Cultural Studies Journal, vol. 15, no. 2, 2019, pp. 100-120.
11. Yunusbayev B., Metspalu M., Metspalu E. and all. The Genetic Legacy of the Expansion of Turkic-Speaking Nomads across Eurasia. <https://journals.plos.org/plosgenetics/article?id=10.1371/journal.pgen.1005068>
12. КОНДЫБАЙ С. Мифология предказахов. Часть вторая. Змея и дракон: значение образа змеи для познания истории предказахов. – Алматы, 2011. <https://otuken.kz/chast-vtoraya-zmeya-i-drakon-znachenie-ob/>
13. "Caïque." Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, <https://www.merriam-webster.com/dictionary/ca%C3%AFque>
14. <https://en.wikipedia.org/wiki/Ca%C3%AFque>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масьулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).